

**FONETIK USLUBIYATNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY  
AHAMIYATI.****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ  
ФОНЕТИЧЕСКОГО СТИЛИСТИКИ****THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF  
PHONETIC STYLISTICS.**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya  
fanlar doktori Usmonov Farxod Faxriddinovich  
Anvarova Mexrinsaxon O'ktamjon qizi,  
Zaynobiddinova Marhabo Ismoiljon qizi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fonetik uslubiyatning nazariy asoslari, fonetik vositalarning matndagi uslubiy funksiyalari va ularning estetik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, intonatsiya, urg'u, alliteratsiya kabi vositalarning badiiy matndagi roli misollar orqali tahlil qilingan.

В данной статье рассматриваются теоретические основы фонетического стилистического анализа, анализируются стилистические функции звуковых средств в тексте и их эстетические возможности. Особое внимание уделено роли интонации, ударения и аллитерации в художественной речи.

This article explores the theoretical foundations of phonetic stylistics, focusing on the stylistic functions of phonetic devices in texts and their aesthetic potential. Particular attention is given to intonation, stress, and alliteration in literary discourse.

**Kalit so'zlar:** fonetik uslubiyat ,fonema,urg'u ,intonatsiya,alliteratsiya ,orfoepiya,uslubiy vosita,ekspressiv,fonetika,poetik fonetika, badiiy nutq,zamonaviy tadqiqotlar,tilshunoslik.

**Keywords:** stylistic phonetics, intonation, rhythm, alliteration, assonance, expressive phonetics, poetic phonetics, stylistics, literary speech, phonetic devices, contemporary research, linguistics.

**Ключевые слова:** стилистическая фонетика, интонация, ритм, аллитерация, ассонанс, экспрессивная фонетика, поэтическая фонетика, стилистика, художественная речь, фонетические средства, современные.

**Kirish:** Fonetik uslubiyat tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, matndagi fonetik hodisalarning estetik, ekspressiv va kommunikativ funksiyalarini o'rganadi. Tilning tovush tizimi orqali berilgan ma'lumotlar nafaqat semantik yuklamaga, balki emotsional ta'sirchanlikka ham ega bo'ladi. Uslubiy vosita sifatida

fonetik elementlar poetik, publitsistik, dramatik va og‘zaki nutq uslublarida keng qo‘llaniladi. Fonetik uslubiyat fonetika bilan stilistikaning tutashgan sohasi bo‘lib, u nutq tovushlarining badiiy va funksional yuklamalarini tadqiq etadilar.<sup>1</sup>

Fonetik uslubiyatning nazariy asoslari Fonetik uslubiyat fonetika va stilistikaning tutashgan nuqtasida shakllanadi. Fonetik hodisalar, avvalo, tabiiy nutq elementlari sifatida tildagi kommunikatsiyani ta‘minlasa, uslubiy darajada ular matnga ekspressivlik, emotsionallik, ta‘sirchanlik baxsh etadi. Akademik V.A. Bogoroditskiy, R.A. Budagov, G‘. Zulfikarov, N. Mahmudov kabi olimlar fonetik uslubiyatga oid nazariy qarashlarni rivojlantiradi.

Fonetik vositalarning turlari va uslubiy roli Fonetik uslubiyat doirasida quyidagi vositalar alohida o‘rganiladi: Ohang (intonatsiya): Matnning ruhiy holatini ifodalashda asosiy rol o‘ynaydi. Savol, buyruq, hayrat kabi holatlarni ifodalovchi ohanglar dramatik va badiiy uslublarda keng qo‘llaniladi<sup>2</sup>. Urg‘u: So‘z va gapdagi urg‘u joylashuvi ma‘noni o‘zgartirishi yoki ta‘kidni kuchaytirishi mumkin. U publitsistik va dramatik nutqlarda ayniqsa muhim. Pauza: Nutqdagi pauzalar fikrni bo‘lish, urg‘ulash yoki dramatik ta‘sir kuchini oshirishda xizmat qiladi. Alliteratsiya va assonans: Poeziyada tovush takrorlari orqali badiiy obraz yaratiladi. Masalan: “Qorong‘u qishloqda qorlar qulagan...” misolidagi "q" tovushi alliteratsiya namunasi bo‘la oladi. Onomatopeya: Tabiiy tovushlarni taqlid qilish orqali poetik tasvir kuchaytiriladi

Fonetik uslubiyatning uslublar bo‘yicha tahlili Badiiy uslubda fonetik vositalar eng ko‘p va erkin ishlatiladi. She‘riy asarlarda alliteratsiya, ritm, intonatsiya matnga musiqiylik bag‘ishlaydi. Publitsistik uslubda urg‘u va intonatsiya orqali muallifning pozitsiyasi va emotsional munosabati aks ettiriladi. Dramatik uslubda dialoglar orqali urg‘ular, pauzalar va ohanglar aktyorlik ifodasini kuchaytiradi. Og‘zaki nutq uslubida intonatsiya va tempo, urg‘u va pauzalar kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylanadi.

Fonetika (yunoncha: phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo‘g‘in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma‘noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo‘shib, uning o‘rganish obyekti yanada kengaytiradilar (rus olimi L. V. Shcherba). O‘zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo‘g‘in, sintagma, urg‘u va boshqalar) o‘rganiladi. Nutqning tovush tomoni segment (lotincha: segmentum — qirqim, parcha, bo‘lak) va ustsegment (supersegment) birliklarga bo‘linadi. Segment birliklar ketmaket joylashadi (bir vaqtning o‘zida 2 ta

<sup>1</sup> Mahmudov, N. (2004). O‘zbek tilining uslubiy tizimi. Toshkent: Fan nashriyoti

<sup>2</sup> G‘aniev, T. (2008). Stilistika va uslubshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi



tovushni talaffuz qilib bo'lmaydi). Shuning uchun ularni silsilali yoki ketmaket birliklar deyish mumkin. U stsegment birliklarga urg'u va ohang (intonatsiya) kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi. Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni tebratishidan hosil bo'ladi; demak, uning akustik (fizik) jihati bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma'noni idrok etadi, bu perseptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma'lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin<sup>3</sup>. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy fonetika; tarixiy (diaxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi. Umumiy fonetika barcha tillar uchun umumiy bo'lgan fonetik xususiyatlarni (nutq tovushlarining hosil bo'lishi, ularning universal tasnifi, tovushlarning birikish qonuniyatlari, yondosh tovushlardan birining ikkinchisiga ta'siri va boshqalarni) o'rganadi. Umumiy fonetika xususiy fonetika materiallariga asoslanadi. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini tarixiy taraqqiyotida, rivojlanish jarayonida o'rganadi. Tasviriy fonetika esa muayyan til fonetik tizimining hozirgi holatini o'rganadi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslabo'rganadi. Eksperimental fonetika nutqtovushlarini, fonetik hodisalarni ma'lum texnik vositalar yordamida o'rganadi. Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini o'rganish 17-asrda boshlangan bo'lib, bu hol karsoqovlarni o'qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X. P. Bonet, angliyalik J. Uilkins, niderlandiyalik I. Amman asarlari). Tilningtovush tomonini har jihatdan lintvistik nuqtai nazardan o'rganish birinchi marta nemis olimi E. Ziversning „Tovush fiziologiyasi asoslari“ (1876, 2nashri „Fonetika asoslari“ deb nomlanadi, 1881) asarida kuzatiladi. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I. A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A. Bogoroditskiy va L. V. Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar. Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog'liq, chunki tovush, urg'u va ohangsiz bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va ran bo'lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog'liq til bosqichi deb qaraladi. O'zbek tili fonetikasi ham chuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, fonetika Abdullayev, A.

<sup>3</sup> Bogoroditskiy, V.A. (1959). Obshchee yazykoznanie i voprosy stilistiki. Moskva: Nauka

Gʻulomovlar; oʻzbek tili fonetikasini 60-yillar oxiridan eksperimental oʻrganishda A. Mahmudov va S.

Urgʻu — turli fonetik vositalar (mas, nafas chiqarishning kuchi, ovozni kuchaytirish, boʻgʻin tarkibidagi unlining choʻziq talaffuzi, ton balandligini oʻzgartirish) orqali boʻgʻin yoki soʻzni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz. Ajratish obʼyektiga koʻra, U.ning 2 turi farqlanadi: soʻz (lugʻaviy U.) va fraza U.si(mantiqiy U.). Ikki va undan ortiq boʻgʻinli suzlarda shu bugʻinlardan birini ajratib, kuchli talaffuz etilishi deyiladi. Soʻz oʻz navbatida, soʻzning qaysi boʻgʻinga tushishi, qaysi boʻgʻinga birkutilganligiga koʻra 2 turga ga boʻlinadi: bogʻliq va koʻchma (erkin) U. Bogʻliq U. suzda bugʻinlar soni oʻzgarishi (ortishi)ga qaramay, oʻrni oʻzgarmaydigan U.dir (mas, rus tilida). Kuchma U. affiksatsiya jarayonida soʻzda boʻgʻinlar soni orta borishi bilan oʻrnini oʻzgartira boradigan, yaʼni oxirgi boʻgʻinga siljib boradigan U.dir. Masalan, oʻzbek tilida soʻz shunday: oʻqit — oʻqitoʻv — oʻqituvchi — oʻqituvchilik. Ayrim holatlarda soʻz maʼnosini farqlash vazifasini ham bajaradi: olma (feʼl) — olma (ot: meva); osma (feʼl:biror narsani osib qoyishning, boʻlishsizlik shakli) — osma(ot:tibbiyot anjomi) yoki soʻz shaklini farqlaydi: ishchimiz (bizning ishchi) — ishchimiz (biz — ishchi), otingiz (sizning otingiz) — otingiz (miltiqni oting) kabi. Soʻz oxiridagi baʼzi qoʻshimchalar, yuklamalar U. olmaydi, ularda U. oldingi boʻgʻinda qolaveradi. Albatta, umuman, baʼzan, doimo, hamisha, Kobil, Halima kabi oʻzlashma soʻzlarda U. soʻnggi boʻgʻinda emas, undan oldingi boʻgʻinlarda ham keladi. Koʻp boʻgʻinli soʻzlarda, bosh urgʻudan tashqari, ikkinchi darajali urgʻu ham boʻladi.

Intonatsiya (lotincha Intono — baland talaffuz qilaman) (tilshunoslikda) — nutqning ohangi, uning maromiymusiqiy tomoni; tovushning navbatmanavbat koʻtarilishi va tushi-shi. I. nutqning sintaktik maʼnolari (darak, soʻroq, buyruq)ni ham ifodalaydi. Nutq qaratilgan obʼyektga boʻlgan soʻzlovchining munosabati, hissiyoti soʻzdagi I.da namoyon boʻladi. Yozuvda qisman tinish belgilari orqali ifodalanadi. Nutqning stilistik xususi-yatlarini farqlashda, uni shakllantirishda ham maʼlum rol oʻynaydi<sup>4</sup>.

Xulosa: Fonetik uslubiyyat tilda tovushlarning faqat fizik emas, balki uslubiyy funksiyasini ham yoritadi. Tovush vositalari nutqni emotsional, ekspressiv va estetik jihatdan boyitadi. Tilshunoslikda fonetik uslubiyyatni chuqur oʻrganish, ayniqsa adabiyotshunoslik, teatr sanʼati va lingvistik stilistika sohalari uchun muhim ahamiyatga ega. Fonetik vositalarning matndagi uslubiyy rolini aniqlash matn tahlilining yangi yoʻnalishlarini ochib beradi.

<sup>4</sup> Budagov, R.A. (1970). Ocherki po stilistike russkogo yazyka. Moskva: Nauka.  
FOIDALANILGAN ADABIYOTLAR